

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq x'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat k'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 581 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 30-iyunda ruxsat etildi.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'iro'tboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
“Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
Toyirov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalarini boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	125
Abirkulova Sohijamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan)	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	192
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish.....	225
Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	256
G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации.....	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari ..	266
G. I. Abdulxamidova	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	
O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich	
Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi	296
Dilnoza Meyliyeva	
Cross Cultural Preblems in International Business Negotiations	301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	304
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	310
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarni takomillashtirish	315
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	320
O'rinov Dilshodjon Axmadjonovich	
Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi	324
Xolbekova Feruza Rasulovna	



Iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari.....	329
Hasanova Nigora Hasan qizi	
Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....	334
Юлдашев Жамшид Аббарович	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish	340
S. A. Karabayev	
Axborot telekommunikatsiya tarmog'i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi	334
Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	347
G.SH.Qo'ldosheva¹, A.J.Toshboyev²	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	351
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	357
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarni takomillashtirish	362
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar - texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	367
O'rinov Dilshodjon Axmadjonovich	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	371
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili.....	375
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
O'zbekistonda investitsion faoliyat, uni moliyalashtirishning zamonaviy ko'lamlari.....	380
va o'ziga xos xususiyatlari	
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhriddin Bahriddinovich	
Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri (Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish banki misolida).....	384
Muxtorov Jahongir Muxtor o'g'li	
Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish	390
Meliboyev Akmal G'aybullayevich	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy ishlab chiqarish fondlarining tuzilishi hamda hajmi	394
Muxtasar Karimova Isroiljon qizi	
Ayollar tadbirkorligi nazariyasining takomillashuvi xususida.....	398
Sharofiddinova Gulnoza Iloxomjonovna	
O'zbekistonda soliq ma'murchiligida joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari	403
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Soliq majburiyatlari ijrosini takomillashtirish yo'llari	408
Mirzaaliyeva Gulchehra Abduvali qizi	
Сравнительное исследование финансовой отчетности, подготовленной в соответствии с мсфо и нсбу.....	413
Эргашева Шахло Тургуновна	

Innovatsion bank mahsulotlarini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va raqamli transformatsiyaning ro'li.....	420
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Mintaqa mehnat bozori ishchi kuchiga talab va taklifni boshqarish vositasi sifatida	428
Umarov Oqil Omiljonovich, Abdullayev Umidjon G'afurovich	
Development of a Methodology for Assessing the Brand Equity of Higher Education Institutions	435
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining o'rni	442
Avezov Ibrohim Ilhomovich	
Optimizing Digital Pedagogy through Database Applications and Data Mining for a Sustainable Digital Economy	448
Dilfuza Kuzikulova	
Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish	454
Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi	
Talaba va o'quvchilarning kamolotida ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	458
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
To'qimachilik korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish	461
Ikramov Maqsad Muratovich	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish	467
Toyirov Yunus Alamovich	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	474
Turgunov Odilbek Maripovich	
Analysis of the investments in clean energy projects in the developing countries.....	478
Fayziyev Samandar Sobir ogli	
Chakana savdo korxonalarida innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	483
Kodirova Zulxumor Namazovna, Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining qo'llanilishida xorij tajribasining o'rni.....	489
Yo'ldosheva Iroda Ibdulla qizi	
O'z o'zini band qilishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini o'lchashning asosiy yondashuvlari	493
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
Tibbiy xizmatlarni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	497
Axrorova M.F., Mirzayev Q.J.	
Qoraqalpog'iston respublikasida mikrokredit bank xizmatlarining rivojlanish holati iqtisodiy tahlili	502
Serjanov Aymurat Medetbaevich	
Mamlakatda qo'shilgan qiymat solig'ining yutuqlari va kamchiliklari, uni soddalashtirish hamda takomillashtirish yo'nalishlari	508
Mingturayev Abdusalom Abdumalik o'g'li, Orziqulov Ilyos Ixtiyor o'g'li, Boboqulov Jasur Avazovich, Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
Chet el kompaniyalarining "doimiy muassasa" konsepsiyasi mezonlariga yondashishni baholash hamda unga taaluqli foydani aniqlash masalalari	514
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Необходимость оценки и управления рисками в коммерческих банках в условиях устойчивого экономического развития	521
Каримов Шамсиддин Акрам угли	



Turistik xizmatlar bozorining rivojlanishida xorij tajribasini o'rganish.....	527
Ochilova Ozoda Toshquvatovna	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda budget siyosati tahlili	533
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari	540
Davletov Po'lat Torabayevich	
Banklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ispaniya tajribasi	546
Egamova Maxfurat Esanovna	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari	551
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Soliq siyosati va uning strategiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahliliy sharhi	557
Ismatov Xolbuta Begmatovich	
O'zbekiston xizmatlar bozorini rivojlantirishda uning xalqaro, mintaqaviy hamkorlik tashkilotlariga a'zoligining o'ziga xos jihatlari	564
Cho'ponov San'at Otanazarovich	
Analysis of the Regulatory Sandbox Concept and Its Application Under Environmental Regulation	571
YANG Xuan	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida budget xarajatlarini raqamli platformalar orqali optimallashtirish masalalari	576
Baxranov Bo'ston Axmedovich	
Oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish	581
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi	
Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir.....	585
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
Mamlakatimizda aholi daromadlarining shakllanish manbalari va ularning o'zgarish tendensiyalari	593
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
"Sustainable tourism", "green tourism" and "eco-tourism": differences and key principles	597
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich	
Content analysis of social media influencer engagement to marketing product in uzbekistan	602
Abduhakimov Azmiddinjon Bakhtiyor ugli, R Nelly Nur Apandi, Sirojiddin Yangiboyev	
Разработка технико-экономического обоснования проекта в условиях развития финансовой системы и отраслей цифровой экономики	609
Джураева Малика Бекназаровна	
Foyda solig'i ma'muriyatchiligini tashkil etishning ayrim masalalari.....	618
Idirisov Alisher Otajonovich	
O'zbekistonda budjytdan tashqari pensiya jamg'armasining daromdlari shakllanishi va undan foydalanish tahlili	622
Hakimov Ulug'bek Abdullayevich	
Tijorat banklarining depozit siyosatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni baholash.....	628
Sobirova Nozima Normat qizi	
Qurilish xizmatlari bozorida marketingni tashkil qilish xususiyatlari	639
Musyeva Shoira Azimovna	
Central Asian Transportation Corridors: Indicators and Integration Issues	643
Eldor Sobirjonov	



Islomiy darchalar ochishdagi me'yorlar va xalqaro tajriba	649
Islomova Shohida Ilhomovna, Zubaydullayeva Zulayxo Karimovna, Kaxarova Dildora Erkinovna, Abdirahmonova Sarvinoz Mirzoxid qizi	
Mamlakatimizda meva-sabzavotchilik korxonalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	654
Xudoyberganova Dilnoza Anvarjon qizi	
Korxonalarda boshqaruv hisobining o'rni, uning moliyaviy hisobdan farqli jihatlari	658
Ibragimova Zarema Zokirovna	
O'zbekiston iqtisodiyotining osiyoda tutgan o'rni	664
Alimov Abdurahmon Alxmamiddin o'g'li	
Intellectual va innovatsion mulk hisobining dolzarb muammolari.....	667
S.N.Farxodov	
"Yashil" makon – bu toza havo, yer yuzidagi barcha tirik organizmlarning hayot manbai.....	671
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	



“YASHIL” MAKON – BU TOZA HAVO, YER YUZIDAGI BARCHA TIRIK ORGANIZMLARNING HAYOT MANBAI

Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon filiali
“Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi,
iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlari bilan bog‘liq muhim va dolzarb masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: “Yashil” iqtisod, ekologik xavfsizlik, atrof-muhit, “yashil” makon, “yashil” belbog‘, “yashil” tadbirlarni moliyalashtirish, mintaqaviy xamkorlik, tabiiy resurslar.

Abstract: In this article, the important current issues related to the large-scale measures implemented on the basis of the strategy of transition to a green economy of Uzbekistan are considered.

Key words: Green economy, ecological safety, environment, green space, green belt, financing of green activities, regional cooperation, natural resources.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассмотрены важные текущие вопросы, связанные с масштабными мерами, реализуемыми на основе стратегии перехода к зеленой экономике Узбекистана.

Ключевые слова: Зеленая экономика, экологическая безопасность, окружающая среда, зеленые насаждения, зеленый пояс, финансирование зеленой деятельности, региональное сотрудничество, природные ресурсы.

KIRISH

Bilishimiz zarurki, iqtisodiyot ilmidagi aholining hayot sifati umumlashtiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, nafaqat moddiy ne‘matlar va xizmatlarni iste‘mol qilish darajasini, balki ma‘naviy ehtiyojlarni qondirish, salomatlik, umr ko‘rish davomiyligi, atrof-muhit ekologik sharoitlarni, axloqiy-psixologik iqlim, ma‘naviyatni xam o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5863-sonli Farmonida tatbiq etilishi belgilangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit obyektlarini (havo, suv, yer, tuproq, yer qari, bioklima-xillik, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar) inson ta‘siri hamda boshqa salbiy ta‘sir qiluvchi omillardan saqlash, sifatini taminlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko‘lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Atrof-muhitni muxofaza qilish bo‘yicha choratadbirlarni moliyaviy mablag‘larsiz amalga oshirish mumkin emasligi tufayli alohida “yashil” moliyalashtirish tizimini yaratish zarurati paydo bo‘ldi. Shu sababi Bunevich K.G. va Gorbacheva T.A. o‘zlarining tadqiqotlarida “yashil moliya”, “yashil” investitsiyalash tushunchalarini ilgari surdilar. Yangi “yashil” moliyaviy vositalar nafaqat ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhit va iqlim muammolarini hal qilish va uni muxofaza qilish uchun mo‘ljallangan, degan fikrni keltirishgan.

Zhang D. va boshqalarning tadqiqotlarida “yashil” iqtisodiy samaradorlik, Durbin modeli, “yashil” iqtisodiyotda toza energiyaning roli, “yashil” iqtisodiyot ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham mazkur masala atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, “Yashil” iqtisodiyotning energetika sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarining jahondagi hozirgi holati tahlil qilingan va rivojlanish tendensiyalari Z.Nurov tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. T.K.Iminov, A.V.Vahobov, T.Z.Teshaboyev, M.T.Bo‘taboyevlarning tadqiqotlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning xorijiy tajribalari, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy ekologik muammolar kabi masalalari atroflicha o‘rganilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. "Yashil" iqtisodiyot rivojlanishining ta'siri tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oxirgi yillarda mamlakatimiz ham atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro hamkorlik munosabatlarida faol qatnashmoqda. O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 18-mayda Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasiga va Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga qo'shilgan, O'zbekiston 1993-yildan buyon BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi xadli konvensiyasining (Nyu-york, 1992-yil may) a'zosi hisoblanadi.

Xalqaro darajada aholi hayot sifatini yaxshilash borasida qabul qilingan eng muhim xujjat – Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) 2015-yilda qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" bo'lib, ular butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarni hal etishga qaratilgan 17 ta o'zaro bog'liq maqsaddan iborat. O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlanib, unda 16 ta milliy barqaror rivojlanish maqsadi, 125 ta vazifa belgilanib olindi. Milliy maqsadlardan: iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarini qabul qilish, quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va bioxilma-xillikning yo'qolib ketish jarayonini to'xtatish vazifalari belgilandi.

Ekotizimlar va biologik xilma-xillik iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni kamaytirish uchun muhim bo'lgan asosiy tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni jadallashtirish bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan ekotizimlar va biologik xilma-xillikni barqaror boshqarish ilmiy, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish masalalarida markaziy o'rinni tutadi.

Respublikada ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va "yashil" maydonlarni kengaytirish borasida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirilishi muhim qadam bo'ldi. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali shaharlardagi "yashil" maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish reja qilingan.

Shu o'rinda yana bir xolatni ko'rsatib o'tishimiz joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda iqlimning o'zgarishi, yaqqol sezila boshladi. Yillik o'rtacha haroratning ko'tarilishi, mavsumiy qurg'oqchilik kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa Orol dengizining qurish jarayoni mintaqadagi iqlim sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Orol falokati yoz faslida qurg'oqchilik va jazirama issiqni kuchaytirib hamda sovuq va qahraton qish faslini uzaytirib, iqlimning kontinentalligini chuqurlashtirdi. Bu salbiy ta'sirning oqibatlarini yumshatish uchun davlatimiz tomonidan qator tadbirlar ishlab chiqilib, ular qatoriga Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming gektar "yashil" maydonlarni barpo etish, 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga etkazish, Orolbo'yida xalqaro "Yashil iqlim" va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSH dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston fuqarolariga "Yashil makon" platformasi orqali ekilgan ko'chatlar holatini nazorat qilish imkoniyati yaratilgan. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi elektron platformasi orqali nazorat qilish tashkil etilgan. Bu platforma orqali "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har bir hududda yiliga 200 million tup ko'chatni ekish va shu orqali mamlakatimizdagi "yashil" maydonlarni kengaytirish rejalashtirilgan. Loyiha doirasida kelgusi 5 yilda 1 milliard tup daraxt ko'chati va butalar ekiladi. Ekilgan ko'chatlarning holati esa elektron tizim orqali nazorat qilinadi va xar yilgi ko'chat ekish mavsumi o'tgan yillardagidan tubdan farq qiladi.

Davlat ekologiya qo'mitasidan ekspert guruhi tashkil qilingan. Bu ekspert guruhida 8 ta xodimdan iborat. Ular Respublikada ko'zga ko'ringan olimlar – arbaris, dendrolog, tuproqshunos, agronom kabi olimlardan iborat va har bir hududda hududiy amaliy yordam va monitoring guruhlar tashkil qilingan. Davlat ekologiya qo'mitasining tahlil markazi tashkil etilgan bo'lib, bu yerda onlayn rejimida monitoring olib boriladi.

Bundan tashqari, har bir shtabda koll-markaz ham tashkil etilgan bo'lib, murojaatlar uzluksiz qabul qilin-yapti. Ekilgan ko'chatlar haqidagi ma'lumotlar hududdagi shtab vakillari tomonidan "Yashil makon" platformasiga kiritiladi.

Platformada hozir tuman, viloyat shtablari ekilgan ko'chatlarning turi bo'yicha, navi bo'yicha, kim tarafdin ekildi, qaysi subyektdi ekdi, ijtimoiy sohami, avtomobil yo'llarimi, fermer xo'jaliklarimi ekilgan ko'chatlarning egasi



va mas'ullari mavjud. O'sha mas'ullarga birato'la birlashtirilib ketilmoqda. Bu yangi "Yashil makon" platformasi umummilliy loyahasini jamlovchi, uni nazorat qiluvchi ochiq platforma hisoblanadi. "Yashil makon" platformasida har bitta daraxt nazoratga olingan bo'lib, ular o'zining manzili, sug'orish tizimi bor-yo'qligi haqida to'liq ma'lumot beradi. Har bir fuqaro mobil telefoni orqali kirib, bu platformada o'zining mahallasida, ko'chasida qanday ko'chat turi ekilganligi, uning soni, uning sug'orish tizimi bormi-yo'qmi, ekilgan ko'chatlar kimga birlashtirilganligini ko'rishni mumkin.

Platformaga har bitta ekilgan daraxt ko'chatlarni kiritish, uni nazorat qilish asosan 3 bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqichi bu tuman hokimligida tashkil etilgan shtab xodimlari har bitta ko'chatni ushbu platformaga kiritib boradi. Kiritilgan ma'lumotlar inspektorlar tomonidan o'rganiladi. Haqqoniyligi tasdiqlansa, platforma "yashil" rangga o'zgaradi. Ko'chatlar yetishtirish uchun hududlarda pitomniklar tashkil etilgan bo'lib ularda parvarishlangan millionlab ko'chatlar yo'l yoqalariga ekilmoqda. Jumladan, Andijon viloyati Paxtaobod tumani-dagi pitomnikda 20 gektar maydonda manzarali ko'chatlar va butalar yetishtirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Viloyatdagi 16 ta hududida ko'chatzorlar tashkil etilgan bo'lib, xususan, Paxtaobod tumani-dagi 20 gektarli mana shu maydonda 300 ming tup manzarali ko'chatlar hamda butalar parvarish qilinmoqda va har yili 100 ming tup noyob daraxtlarning nihollari ekish uchun tayyorlanadi.

Qayd etilishicha, joriy yildan boshlab "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida 200 mln tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko'chatlarini, qalamchalarini ekish ko'zda tutilmoqda. 2024-yil yakuniga qadar "yashil" bog'lar soni 444 taga yetkaziladi.

Ekologiya yo'nalishida 2024-yilda amalga oshirilishi belgilangan asosiy tadbirlar quyidagilar:

- 112 ta yirik sanoat korxonasi hududida va unga tutash hududlarda 2,1 mln tup ko'chatdan iborat "yashil belbog'"lar barpo etiladi;
- respublikada o'rmon bilan qoplangan maydonlarni 3,65 mln gektarga (8,1 foizga) yetkazish choralari ko'riladi;
- yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko'chishidan saqlash uchun ihota daraxtzorlari 15 014 gektarga yetkaziladi;
- o'rmon xo'jaliklarida nihol va ko'chatlar yetishtirish 112 mln tupga yetkaziladi hamda daraxt va buta urug'larini tayyorlash 688 tonnaga oshiriladi;
- iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmi 1,5 foizga qisqartiriladi;
- 93 ta sanoat korxonasida lokal oqova tozalash inshootlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi;
- 14 ta hududda qarovsiz hayvonlarni saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi pitomniklar yaratiladi.
- respublikaning barcha shaharlari atrofida "yashil belbog'"lar tashkil qilinadi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida barcha hududlarda ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish bo'yicha katta dastur qabul qilingan. Buning uchun:

- har bir viloyat bahor va kuz mavsumida 15 million tup daraxt ko'chatlari ekishi;
- barcha shaharlar atrofida "yashil belbog'"lar tashkil qilish zarurligi belgilangan.

BMT Taraqqiyot dasturi ko'magida "Yashil makon" tashabbusi doirasida Orolbo'yi va Surxondaryoni o'rmonzorlashtirish, ularning qum va chang bo'ronlariga chidamligini oshirish hamda O'zbekiston shaharlarini ko'kalamzorlashtirish bosh rejasini ishlab chiqish loyihasi boshlandi.

"Yashil makon" tashabbusini qo'llab-quvvatlash maqsadida bosh reja va innovatsion moliyaviy yechimlarni ishlab chiqish" qo'shma loyihasi ishga tushirildi. Loyihaning asosiy maqsadi innovatsion uzoq muddatli moliyalashtirish, muvofiqashtirish va salohiyatni oshirish orqali "Yashil makon" tashabbusining iqlimga chidamligini oshirishda O'zbekiston hukumatini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Loyiha tashabbusi BMTTD, Davlat ekologiya qo'mitasi, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YEIK) va BMT qochqinlar bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi tomonidan ilgari surilgan edi.

Loyihani amalga oshirish uchun hamkorlar tomonidan jami 900 ming dollar ajratilgan bo'lib, bu mablag' orqali 2023-yilning o'zida Orolbo'yi va Surxondaryo viloyati hududlarini o'rmonzorlashtirishni moliyalashtirish, innovatsion monitoring va nazorat tizimini joriy etildi. Loyiha Moliya vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, O'zgidromet, Suv xo'jaligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirliklari, shuningdek, fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilmogda.

Amalga oshirilayotgan qo'shma loyiha, shuningdek, "Yashil makon" umummilliy loyahasini qo'llab-quvvatlagan holda mamlakatimizda aholi salomatligi va hududlarning iqtisodiy holatini yaxshilash, barqaror ish o'rinlarini yaratishni, ayniqsa, ayollar uchun qulay ish o'rinlarini ko'paytirishni maqsad qilgan.

"Yashil makon"ning 1 milliard daraxt ekish loyihasi havoni tozalash va aholi salomatligini muhofaza qilishga yordam beradi. Ammo ko'chatlarni ekishni har tomonlama parvarish qilmasdan va boshqarishsiz daraxtlarning taqdirini oldindan aytib bo'lmaydi. Shuning uchun ekishning texnik iqtisodiy asoslanishi va loyiha ishtirokchilarining yanada muvofiqashtirilgan sa'y-harakatlari kerak.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Muvaffaqiyatga erishish, ya'ni ko'chatlar ildiz otib, osmonga bo'y cho'zishini ta'minlash, uglerod tashlanmalari hajmini kamaytirish va ular bilan keyinchalik potensial ravishda savdo qilish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun sa'y-harakatlar mamlakat miqyosida samarali tarzda muvofiqlashtirilishi lozim.

Fikrimizcha, "Yashil makon" — yuqori maqsadlarga yo'naltirilgan jadal tashabbus bo'lsa-da, puxta tayyorlik va rejalashtirish orqali uning yanada samaraliroq bo'lishini ta'minlash mumkin. O'rmonlashtirish va o'rmonlarni qayta tiklash dasturlari doirasida istalgan natijalarga erishish uchun uzoq muddatli investitsiyalar va boshqaruv bilan bir qatorda, puxta rejalashtirish va doimiy diqqat-e'tibor talab etiladi.

Nihoyat, dastur natijalari belgilangan yuqori maqsadlarga mos bo'lishini ta'minlash uchun imkon qadar qisqa vaqt ichida samarali va innovatsion moliyalashtirish modeli joriy etilishi lozim.

"Yashil makon" davlat jamg'armasining tashkil etilishi muammoni yechilishi uchun bir qadam ammo maqsadga erishish uchun davlat investitsiyalarining o'zigina yetarli bo'lmaydi. Jalb qilinadigan nodavlat mablag'larining hajmini ko'paytirish hamda investitsiya va moliyalashtirish manbalarini kengaytirish lozim. Bularga o'rmonlardan barqaror foydalanish va o'rmon xo'jaligini rivojlantirish maqsadlariga yo'naltirilgan xalqaro moliyalashtirish, xususiychki moliyalashtirish va yashil/BRM obligatsiyalaridan foydalanishni keng joriy qilish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шавкат Мирзиёев, Корея Республикасида ўтказилган "Яшил ўсиш ва глобал мақсадлар учун ҳамкорлик – 2030" (P4G) иккинчи халқаро саммитидаги нутқи. t.me/shhofergana/9977
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 майдаги "2017—2021 йилларда қайта тикланувчи энергетикани янада ривожлантириш, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида"ги ПҚ-3012-сон қарори. lex.uz/docs/3221894
3. Bloomberg нашри маълумотлари асосида <https://assets.bhub.io/professional/sites/24/Energy-Transition-Investment-Trends-Exec-Summary-2022.pdf>
4. Б.М.Тнинг "Барқарор Ривожланиш Мақсадлари" (Sustainable Development Goals) лойиҳалари ҳамда бошқа атроф-муҳитни ҳимояси учун ташкил қилинган халқаро шартномалари (Paris Agreement, 2015).
5. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2022 Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63)Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230782> UZBEKISTAN | www.caajsr.uz
6. "Экотизимлар ва биологик хилма-хиллик иқтисодиёти", "Табиий капитал банки", 2015 йил. 52 б.
7. <https://yuz.uz/news/atrof-muhitni-muhofaza>.
8. Ўзбекистон, Ташкент — АН Podrobno.uz
9. (<https://aneg.kz/catalog/peresadchikiderevov/peresazhivatel-derevov-traktorny-bystron/>).
10. Archspeech нашри NewYorkCityStreetTreeMap.
11. "Газета.uz"

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

